



FARG‘ONA VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG‘ONA  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil  
yanvar-mart*





## FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni 4 079,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 18,0 ming kishiga yoki 0,4 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 320,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 759,5 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**4 079,5** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**(+) 18,7** ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar




**56,9%**


#### Qishloq




**43,1%**

**Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar***2024- yil yanvar-mart***Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni***2024- yil 1- aprel holatiga*


2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,5 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,3 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 12,2 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi**
*2024- yil 1- yanvar holatiga*


2024- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

**Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi**
*2024- yil 1- yanvar holatiga*



2024- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,7 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,9 yoshga, ayollar uchun esa 77,5 yoshga teng. Shahar joylar 75,2 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 76,4 yoshni tashkil etgan.

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**
*2024- yil 1- aprel holatiga*

**Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
*2024- yil 1- aprel holatiga, ming kishi*

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3 994,7</b>	<b>4 079,5</b>	<b>102,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	316,1	323,3	102,3
Qo'qon	305,0	309,5	101,5
Quvasoy	99,4	101,6	102,2
Marg'ilon	247,7	254,4	102,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	224,8	229,5	102,1
Qo'shtepa	204,8	209,3	102,2
Bag'dod	229,0	234,1	102,2
Buvayda	242,6	248,3	102,3
Beshariq	239,1	243,6	101,9
Quva	271,7	276,8	101,9
Uchko'prik	237,4	242,7	102,2
Rishton	213,2	217,8	102,2
So'x	82,3	84,2	102,3
Toshloq	215,4	218,6	101,5
<b>O'zbekiston</b>	<b>231,6</b>	<b>237,3</b>	<b>102,5</b>
Farg'ona	218,1	222,6	102,1
Dang'ara	173,7	178,0	102,5
Furqat	125,0	127,7	102,2
Yozyovon	117,8	120,2	102,0

## Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi





Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 603,6 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,7 kishiga ortgan (2023- yil 1-aprelda 1 kv.km.ga 590,9 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 4 890,4 kishi, Qo'qon shahrida 4 810,4 kishi, Farg'ona shahrida 2 989,1 kishi, Toshloq tumanida 900,9 kishi, Buvayda tumanida 889,9 kishi, Uchko'prik tumanida 895,2 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 295,3 kishi, Beshariq tumanida 314,8 kishi, O'zbekiston tumanida 352,1 kishi, Oltiariq tumanida 363,8 kishi, Farg'ona tumanida 374,7 kishini tashkil etgan.

## Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2024- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi





**QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR**

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti**
*2024- yil yanvar-mart, kishi*

Qo'qon sh.	1 885	24,5 ‰
Uchko'prik t.	1 618	26,9 ‰
Farg'ona sh.	1 617	20,2 ‰
Marg'ilon sh.	1 583	25,1 ‰
Quva t.	1 431	20,8 ‰
Buvayda t.	1 408	22,9 ‰
Bag'dod t.	1 372	23,6 ‰
Qo'shtepa t.	1 325	25,5 ‰
Oltiariq t.	1 323	23,2 ‰
Farg'ona t.	1 312	23,8 ‰
O'zbekiston t.	1 252	21,3 ‰
Toshloq t.	1 244	22,9 ‰
Rishton t.	1 176	21,8 ‰
Beshariq t.	1 099	18,2 ‰
Dang'ara t.	1 081	24,5 ‰
Furqat t.	705	22,3 ‰
Yozyovon t.	596	20,0 ‰
Quvasoy sh.	522	20,7 ‰
So'x t.	364	17,4 ‰

2024- yilning yanvar-mart oylarida 22,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,6 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 23,8 promilleni tashkil etgan).

*Farg'ona viloyatining demografik holati*
*2024- yil yanvar-mart*

**VAFOT ETGANLAR**

**Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**
*2024- yil yanvar-mart, kishi*


2024- yilning yanvar-mart oylarida 4,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 4,3 promilleni tashkil etgan).




## O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- mart, kishi




2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining 62,3 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,9 %i – o'simtalardan, 6,0 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,8 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 13,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

**QAYD ETILGAN NIKOHLAR**

**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti**  
*2024- yil yanvar-mart, birlik*

Qo'qon sh.	353	4,6 ‰
Beshariq t.	347	5,7 ‰
Farg'ona sh.	278	3,5 ‰
Quva t.	268	3,9 ‰
So'x t.	257	12,3 ‰
Rishton t.	256	4,7 ‰
Farg'ona t.	250	4,5 ‰
O'zbekiston t.	249	4,2 ‰
Oltiariq t.	241	4,2 ‰
Buvayda t.	212	3,4 ‰
Bag'dod t.	210	3,6 ‰
Dang'ara t.	205	4,6 ‰
Uchko'prik t.	200	3,3 ‰
Marg'ilon sh.	172	2,7 ‰
Toshloq t.	154	2,8 ‰
Furqat t.	149	4,7 ‰
Qo'shtepa t.	141	2,7 ‰
Yozyovon t.	88	2,9 ‰
Quvasoy sh.	74	2,9 ‰

2024- yilning yanvar-mart oylarida 4,1 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 4,6 promille bo'lgan).

**NIKOHDAN AJRALISHLAR**

**Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**
*2024- yil yanvar-mart, birlik*

Farg'ona sh.	137	1,7 ‰
Qo'qon sh	127	1,7 ‰
Beshariq t.	79	1,3 ‰
O'zbekiston t.	79	1,3 ‰
Farg'ona t.	71	1,3 ‰
Marg'ilon sh.	64	1,0 ‰
Bag'dod t	61	1,1 ‰
Uchko'prik t.	61	1,0 ‰
Buvayda t.	60	1,0 ‰
Rishton t.	60	1,1 ‰
Oltiariq t	59	1,0 ‰
Toshloq t.	56	1,0 ‰
Dang'ara t.	56	1,3 ‰
Quva t.	54	0,8 ‰
Furqat t.	39	1,2 ‰
Qo'shtepa t.	34	0,7 ‰
So'x t.	33	1,6 ‰
Quvasoy sh.	32	1,3 ‰
Yozyovon t.	26	0,9 ‰

2024- yilning yanvar-mart oylarida 1,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 1,4 promille bo'lgan).

## AHOLI MIGRATSIYASI



*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 2 194 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 2 893 kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus 699 kishini tashkil etdi.


### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

*2024- yil yanvar-mart, kishi*

	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2 194</b>	<b>2 893</b>
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	866	592
Qo'qon sh.	77	277
Quvasoy sh.	118	91
Marg'ilon sh.	11	376
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	58	91
Qo'shtepa t.	206	74
Bag'dod t.	3	75
Buvayda t.	33	78
Beshariq t.	33	172
Quva t.	82	172
Uchko'prik t.	20	94
Rishton t.	51	133
So'x t.	97	34
Toshloq t.	96	113
O'zbekiston t.	14	118
Farg'ona t.	204	199
Dang'ara t.	103	93
Furqat t.	89	62
Yozyovon t.	33	49

**JAMI KO'CHIB KELGANLAR**

**Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti**
*2024- yil yanvar- mart, kishi*


2024- yilning yanvar-mart oylarida 2,2 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,1 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 2,1 promille bo'lgan).

**JAMI KO'CHIB KETGANLAR**

**Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti**

2024- yil yanvar- mart, kishi

Farg'ona sh.	592	7,4 ‰
Marg'ilon sh.	376	6,0 ‰
Qo'qon sh.	277	3,6 ‰
Farg'ona t.	199	3,6 ‰
Beshariq t.	172	2,8 ‰
Quva t.	172	2,5 ‰
Rishton t.	133	2,5 ‰
O'zbekiston t.	118	2,0 ‰
Toshloq t.	113	2,1 ‰
Uchko'prik t.	94	1,6 ‰
Dang'ara t.	93	2,1 ‰
Quvasoy sh.	91	3,6 ‰
Oltiariq t.	91	1,6 ‰
Buvayda t.	78	1,3 ‰
Bag'dod t.	75	1,3 ‰
Qo'shtepa t.	74	1,4 ‰
Furqat t.	62	2,0 ‰
Yozyovon t.	49	1,6 ‰
So'x t.	34	1,6 ‰

2024- yilning yanvar-mart oylarida 2,9 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,9 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'zgarish bo'lmaganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 2,9 promille bo'lgan).

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 73 241-97-74*